



**VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR
ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNING SABABLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14501652>

Kapitan Muzaffarova Maftuna Yusuf qizi

Milliy Gvardiya Jizzax viloyati bo'yicha boshqarmasi BIB inspektor psixolog

jaliyevalli@gmail.com

Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, shuningdek unda voyaga yetmaganlarning ta'lim olishi, kamolga yetishi, ularning haq-huquqlari himoya qilinishi, fuqarolar tomonidan voyaga yetmaganlar borasidagi majburiyatlarini lozim darajada bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek qonunchilik hujjatlarida: Ota va ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligi, ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shartligi, ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgarligi, ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shartligi, ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega ekanligi, ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi kerakligi, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi, ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanishi hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari, ota-ona va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart ekanligi ko'rsatilgan.

Muhtaram Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvi doirasida: "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvadlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunda salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz"⁶-deya ta'kidlagan edi.

⁶ Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrda "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" nutqi



Davlatimiz rahbarining fiklaridan ham ma'lumki, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq har bir holat uchun barchamiz birdek mas'ulmiz. Lekin ba'zi qo'shtirnoq ichidagi mas'ullar o'z vazifalarini vijdonan bajarmasdan kelmoqda. Ota-onalar ish va hayot tashvishlari bilan ovvora bo'lganligi sababli voyaga yetmagan bolalar nazoratsiz va qarovsiz qolishmoqda. Shu sababli voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklar soni tobora ortib bormoqda. Ota-onalar tomonidan voyaga yetmaganlar nazoratsiz va qarovsiz qoldirilayotganligi sababli ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablarini qaerdan izlash kerak?

Tahlillarga ko'ra, ayni paytda bunga sabab bo'layotgan bir qator omillar mavjud.

Birinchiidan, ayrim ota-onalar farzandi dunyoga kelgach, arzimagan bahonani ro'kach qilib, ajrashib ketadi. O'z navbatida, oila buzilishi bolaga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, uning tarbiyasini izdan chiqarib yuborayotganini, afsuski, hayotda uchrayotgan ko'plab noxush voqealar tasdiqlab bermoqda.

Konstitutsiyamizning 64-moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani qayd etilgan.

Ammo ajrashib ketgan ayrim ota-onalar farzand tarbiyasida umuman ishtirok etmasligi, hatto farzandi moddiy ta'minotini ham ixtiyoriy amalga oshirmayotgani kabi holatlar nihoyatda achinarlidir.

Buni raqamlar misolida ko'raylik: birgina o'tgan yilning o'zida 3 ming 99 nafar fuqarodan – sudning hal qiluv qarori asosida, 38 mingdan ziyod fuqarodan esa, sud buyrug'i orqali farzandlari ta'minoti uchun aliment undirish belgilangan.

Vaholanki, muqaddas Hadisda keltirilganidek, "Kishi o'z ahliga mutasaddidir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Ayol erining uyida mutasaddidir va u qo'l ostidagilarga mas'uldir".

Shunday ekan, har qaysi ota-ona o'z farzandlariga nisbatan mutasaddi va mas'ul ekanini unutmazligi shart. Zero, bu farzand kelajagi, uning komil inson bo'lib voyaga yetishida eng muhim va zarur omildir. Shu bilan birga, bu qonun talabi, ma'naviy burch, muqaddas dinimiz arkonlariga ko'ra ham farzu qarz, demakdir.

Shubhasizki, bunda ota-onalarning o'zlari kundalik turmushda, o'zaro muloqotu muomalalarida va jamiyat hayotiga munosabatlarida farzandlariga hamisha namuna bo'lishlari lozim. Xususan, ularga yoshlikdan nima yaxshi-yu nima yomon, savob va gunoh nimada ekanligini, shuningdek, odob-axloqqa doir ijobiy fikrlarni o'rgatib borishlari darkor.



Ikkinchidan, ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi, o'z farzandining tarbiyasini birovlariga ishonishlari ham salbiy holatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda ayrim ota-onalar katta orzu-havaslar bilan, ya'ni farzandini yaxshiroq moddiy ta'minlash, to'yini boshqalarnikidan ko'ra dabdabali o'tkazish, sarpolarini bekamu-ko'st qilish niyatida bolasini qari ota-onasiga, qarindoshi yoki tanish-bilish, qo'ni-qo'shnisiga tashlab, o'zlari boshqa yurtga ishlab, pul topib kelish uchun ketayotganligi ham bor gap. Lekin ular farzandga ayni tarbiya berish lozim bo'lgan vaqtni behuda yo'qotayotganini va keyinchalik buning o'rnini na moddiy ne'mat, na ma'naviy-ma'rifiy saboq bilan qoplab bo'lmasligini har doim ham anglab yetavermaydilar. Nihoyat tushunganlarida esa, taassufki, kech bo'ladi.

Bola tarbiyasiga oid risolalardan, mutaxassislar fikri, xalqimiz tajribasidan ham yaxshi ma'lumki, xoh u o'g'il, xoh qiz bo'lsin, ayni balog'at yoshiga qadam qo'yayotgan bir paytda, ruhshunoslar tili bilan aytganda, "o'tish davri"da bolaning har qanday xatti-harakati va holatlarini, yurish-turishini jiddiy nazorat qilish shart. Ayniqsa, bunday paytda farzand tarbiyasini birovlariga ishonib bo'lmaydi.

Qaysidir ota-ona yengil-yelpi havaslar ortidan quvib, xorijga mo'may daromad izlab ketdi va hatto birmuncha pul topib keldi ham, deylik.

Biroq ularning chuqur o'ylab qilgan ishlari avvalo o'zlariga qimmatga tushayotganiga ko'p bor guvoh bo'lmoqdamiz. Negaki, o'tgan fursat oralig'ida qarov va e'tiborsiz qoldirilgan farzandi arjumandning ta'lim-tarbiyasi izdan chiqib ketgan bo'ladi.

Bugungi kunda jinoyat sodir etib, jazo o'tayotgan voyaga yetmaganlarning aksariyati, aniqroq aytganda, 70 foizdan ko'prog'i ajrashgan yoki boshqa yurtga ishlash uchun oila bag'ridan uzoq muddat chetga chiqib ketgan ota-ona farzandlari ekani ham ushbu fikr-mulohazalarimizni tasdiqlab turibdi.

Uchinchidan, bu muammoning navbatdagi sabablari – oiladagi o'zaro munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ota-onaning spirtli ichimlikka mukkasidan ketganligi, oilada er-xotin va farzandlar o'rtasida o'zaro izzat-hurmat yo'qolganligi, qisqacha aytganda, oila boshliqlarining o'zlari birinchi galda tarbiyaga muhtoj ekanida o'z aksini topmoqda.

Misol uchun 2017 yilda 1 ming 198 nafar ota va ona otalik hamda onalik huquqidan mahrum etilgan. Qariyb 800 nafar fuqaro, ya'ni ota yoki onaning spirtli ichimlik iste'mol qilganligi va boshqa sabablarga ko'ra muomala layoqati cheklangan. Mana shunday tashvishli holatlar ham, aslida, voyaga yetmagan yoshlar kelajagiga raxna solayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Bu masalada yana bir xatarli holat kuzatiladiki, buni aslo inkor etib bo'lmaydi. Aytmoqchimizki, bolalarning jinoyat yo'lga kirib qolishi sabablari haqida so'z



borganda, voyaga yetmagan farzandlarimizning ongiga salbiy ta'sir etayotgan turli axborotlar xususida jiddiy o'ylab ko'rish taqozo etiladi.

Internetda tarqatilayotgan zo'ravonlik va fahsh manzaralari aks etgan ma'lumotlar yoshlar ongiga kuchli salbiy ta'sir o'tkazishi o'z-o'zidan ravshan. Shunday ekan, bolalarni bunday tajovuzlardan juda ehtiyot qilishimiz zarur.

Tabiiyki, voyaga yetmagan yoshlarni jinoyatchilik ko'chasiga yetaklayotgan barcha holat-sabablarning bari ta'lim-tarbiya bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari nafaqat ta'lim, balki tarbiya maskanlari ham hisoblanadi.

Chunki ushbu ma'rifat dargohlarining asosiy vazifasi yoshlarga ta'lim-bilim berishga qaratilgan. Ayni chog'da, atigi bir yoki bir necha o'qituvchi ko'p sonli o'quvchi-talabalar tarbiyasi bilan alohida-alohida tartibda shug'ullanishining imkoni yo'q.

Shuning uchun farzandlarimiz tarbiyasini birgina ta'lim muassasalariga yuklab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi, deb o'ylaymiz. Albatta, u holda nima qilish kerak, degan savol tug'iladi. Fikrimizcha, yoshlar, xususan, voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug'ullanish masalasini jamoatchilik asosida doimiy nazorat qilib borish lozim.

Ya'ni ushbu masalada mahalla, xotin-qizlar qo'mitalari, diniy idora vakillari, mehnat faxriylari, ijodkorlar, Yoshlar ittifoqi vakillari, ichki ishlar, prokuratura, adliya va sud tizimi xodimlari tomonidan barcha toifadagi yoshlar bilan, o'z-o'zidan – tegishli o'rinlarda o'g'il bolalar bilan alohida, qiz bolalar bilan alohida holda – tizimli, demakki, o'quv yili boshida tasdiqlanadigan aniq reja asosida tarbiyaviy ishlar olib borilishi yaxshi natija berishi tayin.

Qolaversa, aynan shu masalaga moslab, vasiylik va homiylik organlari xodimlarini yangi yo'nalishda o'qitish, malakasini oshirish, kasbga tayyorlash va ularning ish faoliyati samaradorligini talab darajasida yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega. Bunda birinchi galda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish, notinch-nosog'lom oila farzandlari bilan ishlash masalasini tizimli yo'lga qo'yishga e'tibor qaratish talab etiladi.

Maktab o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, bolalarning huquqiy savodxonligini oshirishga e'tibor qaratish – yana bir muhim masala, degan fikrdamiz. Bunda ayni paytdagi huquq asoslari fani darsliklarini sodda, bolalar uchun tushunarli tilda tayyorlash, o'quv mashg'ulotlarini yangicha, qiziqarli tarzda tashkil etish, yuqori sinf o'quvchilarini ichki ishlar, prokuratura va sud faoliyati bilan yaqindan tanishtirib borish kabi dolzarb masalalar uzluksiz yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrdagi “Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega” nutqi

2. <https://lex.uz/acts/-97664>

3. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/